

УДК 542.8.

Ro'ziyev E.A., Karjavov A., Musulmonov N., Kuchkarov O.

**Zamonaviy oliy ta'lif tizimida analitik kimyonni o'qitishning
ilmiy-metodik asoslari**

Samarqand davlat universiteti

O'zbekiston Respublikasi, Samarqand sh.

analitikkimyo@mail.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy oliy ta'lif tizimida analitik kimyonni o'qitishning ilmiy-metodik asoslari to'g'risidagi Samarqand analitiklarining fikrlari keltirilgan. Analitik kimyonni ma'lum ilmiy tizim asosida o'qitishni yo'lga qo'yishda ma'lum ketma-ketligi asosida amalga oshirish haqida takliflar keltiriladi.

Kalit so'zlar: analitik kimyo, ilmiy-metodik ta'lif, ta'lif tizimi, ilmiy uslub, aqliy faoliyat, o'quv jarayoni.

Mamlakatimiz xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarining jadal rivojlanishi avvalo mutaxassis kadrlarning mavjudligi bilan emas, balki ularning sifati bilan ham belgilanadi [1,2].

Respublikamizda ta'lif tizimining rivojlanishi, mukammallashuvida „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ uzluksiz ta'lifning tamomila yangi tizimini ,yangi ta'lif mazmunini takomillashtirishga hamda yangi ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan bo'lib hozirgi paytda navbatdagi bosqichga - sifat bosqichiga kirdi. Bu esa ta'lifni nafaqat o'quv-uslubiy jihatdan, balki ilmiy- uslubiy jihatdan ham kuchaytirishni talab etmoqda. Fundamental fanlarni o'qitishda, ayniqsa, yangi ilmiy texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta'lif olish uslubiyatini yaratish, ta'lif tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash va foydalanish ta'lif sifatini oshishida muhim ahamiyatga egadir.

Kimyo fanlaridan analitik kimyonni o'qitish uning nazariy asoslarini mukammal tushunishdan amaliy jihatlarini va u bilan bog'liq bo'lgan tabiiy

fanlarning ilg'or jihatlari bilan qo'shib olib borishdan, ulardan foydalanishdan, har bir analistik natijani matematik statistika usullari yordamida metrologik jihatdan baholashdan, turli analistik usullarda olingan ma'lumotlarni ilmiy-metodik nuqtai nazardan asoslashdan iborat bo'ladi.

Analitik kimyoda analitik ob'ektlar tahlili fizikaviy,fizik-kimyoviy usullar yordamida bajarishda elektrometrik va optik kattaliklarning barchasidan aniq modda miqdori va sifatiga bog'liqligi xususiyatlaridan foydalaniлади. Shuning uchun ham ta'lim tizimida o'qitishning ilmiy-metodik jihatdan yuqori bo'lishini ta'minlashda bir- biriga yaqin bo'lgan fanlar aloqalaridan foydalanish lozimdir.

Fanlarning bir-biriga bog'liqligini analitik kimyo fanini o'qitishda quydagi tizim asosida yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir:

- analitik ob'ektlarni o'rganishdagi umumiylilik;
- turli qonunlar, tushunchalar va nazariyalarning umumiyligi;
- ilmiy uslubiyatlarning qo'llanilishidagi umumiylilik;
- aqliy faoliyat usullarining umumiyligi;
- fanlarning birgalikkagi istiqbolli aloqalari;
- mantiqiy-strukturaviy sxema va usullarning umumiyligi;
- tahlilning o'quv-dasturiy hujjatlaridagi umumiylilik;
- miqdoriy analiz natijalarining to'g'riliqi va aniqligini matematik statistika usullari va ehtimollar nazariyalari asosida hisoblash va qayta ishlashni yengillashtirishning mumkinligi;
- axborot texnologiyalari, zamonaviy o'lchov vositalari va fundamental tatqiqotlar jarayonidagi o'xshashlik va umumiylıklardan iborat.

Bugungi kunda tayyorlanayotgan analitik bakalavr va magistirlar tor doiradagi alohida mutaxassislik bilan cheklanib qolmasdan, xalq xo'jaligining turli sohalarida ishlab ketish imkoniga ega bo'lishini nazardan chetda qoldirmasligimiz zarur. Shuning uchun ham bugungi talaba o'quv rejasida ko'zga tutilgan fanlarni o'zlashtirish bilan birgalikda yangi axborot texnologiyalarini, zamonoviy o'lchov vositalarini mukammal o'zlashtirishga harakat qilishi lozim.

Universitetimizning analitik kimyo kafedrasida o'qitishning zamonoviy usullaridan foydalaniib, ilmiy-uslubiy jihatdan tashkil etilganligi respublikamizning ko'plab universitet va institutlariga o'rnak bo'larli darajada ekanligi ma'lumdir. Kafedramizda talababalar va magistrlar o'quv jarayoniga mos zamonaviy o'lchov vositalari, apparaturalarini alohida ixtisoslik kurslari (elektrokimyoviy analiz usullari, spektroskopik analiz usullari, gazlar analizi, xromatografik analiz usullari) laboratoryalari va bundan tashqari, umumiy kurslar uchun fizikaviy tadqiqot usullari, fizik-kimyoviy analiz usullari laboratoriylarida muvaffaqiyat bilan qo'llanilib kelmoqda.

Analitik kimyo mutaxassisligi bo'yicha magistratura va doktorantura faoliyat ko'rsatib kelmoqda va unga har yili Navoiy, Buxoro, Qarshi, Nukus, Jizzaxdagi oliy o'quv yurtlari bakalavrлari ham qabul qilinadi. Magistrlarga tanlangan ilmiy mavzular kafedradagi ichki imkoniyatlar darajasida zamonaviy analitik kimyo muammolarini hal etishga qaratilgan bo'lib, ularga kafedramizning yetakchi olimlari rahbarlik qiladilar va har bir yangi mavzudagi dissertatsiya hozirgi zamon rivojlanish tendensiyasini tashkil etuvchi avtomatik va yarim avtomatik qurilmalar yaratish bilan yakunlanishi maqsad qilib qo'yiladi. Ilmiy ishlar natijalari va qurilmalari esa xalq xo'jaligining turli sohalariga va o'quv jarayoniga tadbiq etiladi.

O'quv jarayoniga tadbiq etilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalari magistr va doktorantning dissertatsiyasi va avtoreferatlarida ham ishning o'quv jarayoniga tadbiq qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotnomma sifatida ilova qilinadi.

Adabiyotlar

1. Ro'ziyev E.A., Abduraxmanov E.A., Eshonqulov Z.A. Kimyo fanlarini yangi innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish.// Матер.респ.науч.-мет.конф. Естеств. науки и современ. образование. Сборник статей,-Самарканд, 2009.-6.13-14.

2. Ro'ziyev E.A. Universitet ta'lim tizimida ilmiy pedagogik va analitik mutaxassislar tayyorlash.// Zamonaviy universitet ta'lim tizimida fanning o'rni. Resp.ilm.-amal.konf. ma'ruzalari to'plami.-Guliston, 2004.-b.66-67.

Muallfnинг то'лиқ F.I.Sh.(hammualliflar)	Ro'ziyev Erkin Abdirajabovich, Karjavov A., Musulmonov N., Kuchkarov O.
Ish joyi (to'liq)	Samarqand davlat universiteti
Lavozimi	Analitik kimyo kafedrasи mudiri
Ilmiy darajasi va unvoni	k.f.n., dotsent
Tezis nomi	Zamonaviy oliv ta'lim tizimida analitik kimyonи o'qitishning ilmiy-metodik asoslari
To'plam jo'natiladigan pochta manzili (indeksi bilan)	Samarqand sh. Ulug' Tursunov ko'chasi 83 uy. Indeks: 140100
Uy telefoni, ish telefoni	+99890 600 26 90
E-mail	analitikkimyo@mail.ru
Ishtirok etish shakli (bevosita, bilvosita)	bilvosita